

Vatanparvarlik tarbiyasi tushunchasi va ahamiyati

Zarnigor Burxon qizi Davronova
Buxoro xalqaro universiteti

Annotatsiya: mazkur maqolada vatanparvarlik tarbiyasi tushunchasi, uning ma'naviy-axloqiy asoslari, yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rni va ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan vatanparvarlik tarbiyasi tizimi, uning ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan shakl va uslublari haqida fikr yuritiladi. Maqolada milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba va zamonaviy yondashuvlar asosida vatanparvarlik tarbiyasini chuqurlashtirishning dolzarb jihatlari ochib berilgan. Vatanparvarlik tushunchasi qadimdan insoniyat hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu tushuncha jamiyatning ma'naviy-axloqiy tamoyillari bilan bevosita bog'liq bo'lib, inson shaxsining shakllanishi va kamolotida muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, tarbiya, yoshlar, milliy g'urur, fuqarolik burchi, ma'naviyat, axloq, ta'lim, davlat siyosati, zamonaviy jamiyat

Pedagogical possibilities of using folk songs in the educational process

Zarnigor Burkhan qizi Davronova
Bukhara International University

Abstract: The article covers the pedagogical foundations of using examples of Uzbek folk oral art, especially folk songs, in the educational process. The possibilities of forming aesthetic taste, national identity, spiritual and moral qualities in students through folk songs are considered. The Uzbek people are distinguished by their rich oral creative heritage. Folk songs have been formed over the centuries as an expression of the people's psyche, social life, dreams, hopes, struggles and anxieties. The use of folk songs as a pedagogical tool in the education system allows students to develop national consciousness, social activity, artistic taste, speech and musical literacy.

Keywords: folk songs, educational process, educational system, pedagogical opportunities, aesthetic education, folk art, cultural heritage, national values

Har qanday jamiyatning taraqqiyoti, mustahkamligi va kelajagi avlodlarning yurtga bo'lgan sadoqati, fidoyiligi va Vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissiga bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, globallashuv, axborot urushlari va mafkuraviy tahdidlar kuchayib

borayotgan bugungi davrda yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Vatanparvarlik, eng avvalo, insonning o‘z yurtiga bo‘lgan muhabbat, uning erkinligi va ravnaqiga sadoqatli bo‘lishidir. U jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantiradi, fuqarolik burchini anglashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.01.2021 yildagi 23-son qarorida “Yosh avlodning sog‘lom o‘sishi, sifatli ta’lim olishi va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishini ta’minalash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “besh muhim tashabbus”ni joriy etish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim maktablari, oliy o‘quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta’lim maskanlari - “Prezident maktablari”, “Temurbeklar maktabi”, “Ijod maktablari” bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo‘lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda” deya ta’kidlangan.

O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan ishlar vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta’lim muassasalaridan tortib oliy ta’lim tizimigacha bo‘lgan bosqichlarda ushbu tarbiya asoslari izchil ravishda singdirib borilmoqda. Ushbu maqolada vatanparvarlik tarbiyasining mohiyati va uning yoshlar hayotidagi o‘rni tahlil qilinadi.

Vatanparvarlik tushunchasi qadimdan insoniyat hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu tushuncha jamiyatning ma’naviy-axloqiy tamoyillari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, inson shaxsining shakllanishi va kamolotida muhim rol o‘ynaydi. Vatanparvarlik - bu inson qalbining eng ezgu tuyg‘ularidan biri bo‘lib, Vatan oldidagi burchni, uni himoya qilish, ardoqlash, rivojlantirish istagini o‘z ichiga oladi.

Vatanparvarlik tarbiyasi oila, maktab, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi. Har bir ota-onan farzandining yurtga sadoqatli, fidoyi, ma’naviy yetuk bo‘lib voyaga yetishini istaydi. Shu boisdan, bola tarbiyasida, ayniqsa, maktabgacha va maktab ta’limi bosqichlarida vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilishi zarur.

Ta’lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasi bir necha yo‘nalishlar orqali olib boriladi. Tarix, adabiyot, ona tili kabi fanlar darslarida o‘quvchilarga milliy qahramonlar, tarixiy voqealar, ajdodlarimizning yurtga sadoqatli faoliyati haqida ma’lumotlar berilishi vatanparvarlik hissini shakllantiradi. Bundan tashqari, “Vatan tuyg‘usi”, “Ma’naviyat asoslari” kabi fanlar aynan shaxsda yurtga muhabbat, g‘urur, sadoqat hissini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar vositasida yoshlar orasida vatanparvarlik ruhini kuchaytirishga qaratilgan materiallar keng tarqalmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan videoroliklar, motivatsion chiqishlar, tarixiy filmlar yoshlar qalbida Vatanga sadoqat hissini uyg'otmoqda.

Yurtimizda vatanparvarlik tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'naliшlaridan biri sifatida belgilangan. "Yoshlar - kelajagimiz" davlat dasturi aynan yoshlarni ma'naviy jihatdan yetuk, vatanparvar ruhda tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Bunday dasturlar doirasida turli loyihalar, tanlovlardan, vatanparvarlik aksiyalari, sport musobaqalari tashkil etilishi yoshlarni sog'lom va faol hayot tarziga undaydi.

Vatanparvarlik tarbiyasida tarixiy shaxslar hayotidan namunalar keltirish muhim pedagogik vosita sanaladi. Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimizning hayoti, ularning Vatan himoyasi yo'lida qilgan jasoratlari yoshlar qalbida iftixon va g'urur uyg'otadi. Tarixiy yodgorliklarga, muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish, tarixiy sanalarni eslash orqali ham vatanparvarlik tarbiyasiga xizmat qilish mumkin.

Bundan tashqari, harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tadbirlar, jumladan, "Vatan himoyachilari kuni", yoshlarning ruhiy-axloqiy kamoloti uchun muhimdir. Ayniqsa, harbiy qismlar bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan uchrashuvlar, vatanparvarlik saboqlari yoshlarda fuqarolik burchini anglashga xizmat qiladi.

Zamonaviy davrda vatanparvarlik tushunchasi faqatgina Vatanni himoya qilish bilan cheklanmaydi. Bugungi yosh avlod Vatan ravnaqi yo'lida bilim olib, jamiyatga foydali bo'lishi, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishi, kasbiga fidoyi bo'lib yashashi orqali ham o'z vatanparvarligini namoyon etishi mumkin. Shu jihatdan, vatanparvarlikni faqat harbiylikka bog'lab ko'rmaslik, balki uni har bir fuqaroning hayot tarziga aylantirish zarur.

Shuningdek, vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishda milliy urf-odatlar, qadriyatlar, bayramlar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, Navro'z, Mustaqillik kuni, Vatan himoyachilari kuni kabi umumxalq bayramlari yoshlarda milliy g'urur va birlik tuyg'ularini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish - bu xalqimizning kelajagini asrash demakdir. Vatanparvarlik - bu nafaqat so'z, balki amaliy harakat, o'z yurtiga sadoqat bilan xizmat qilish, uning tinchligi, barqarorligi, taraqqiyoti uchun o'z hissasini qo'shishga tayyor bo'lishdir. Shunday ekan, har bir ta'lim muassasasi, oila va jamiyat a'zosi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda faol ishtirok etishi zarur. Bu borada tizimli yondashuvlar, innovatsion tarbiya metodlaridan foydalanish, yoshlar bilan doimiy ishslash orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.01.2021 yildagi 23-sod qarori.
2. Pedagogikaning nazariy asoslari: ma'ruzalar kursi / tahr. O. Vishnevskiy - Drogobych: Uyg'onish, 2001. – 268 b.
3. Kolesnikova E. Yu., Lubskiy A. V. Yoshlar muhitida vatanparvarlik va fuqarolik: sotsiologik tadqiqotlar paradigmalari // Gumanitar 2018. V. 7. 5-sod. 174-183 b.. DOI 10.23683/2227- 8656.2018.5.14
4. I.I.Axtamov. Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishning interfaol metodlaridan foydalanish. Tafakkur manzili. 2024/5/22
5. I.I.Axtamov. The role of classical music art in higher musical and pedagogical education. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) Vol. 4 No. 6 (2023): wos 2023-06-17
6. I.I.Axtamov. Organization of classes on listening to samples of the national makom in primary schools. Academia Science. In Volume 4, Issue 5 of Academicia Globe: Inderscience Research (AGIR) May 2023
7. I.I.Axtamov. Musiqa madaniyati darslarida musiqa savodxonligi faoliyatining o'rni. Journal of advanced research and stability. 22.12.2022
8. I.I.Axtamov. Musiqa madaniyati darslarida xalq musiqasining o'rni. Science and Education 3 (1) 2022-01-18
9. I.I.Axtamov. Introducing students to the art of makom through music culture lessons. eurasian journal of academic research. Volume 1 Issue 03. 2021-06-10
10. I.I.Axtamov. Maqom an'anaviy kasbiy musiqa namunalarini o'rganishda ovoz xususiyatlari. Scientific progress. ISSN 2181-1601/ 2021/03 B.648-653.
11. К.Б.Холиков. Манера педагогической работы с детьми одарёнными возможностями. Science and Education 4 (7), 378-383
12. К.Б.Холиков. Роль теоретичности и применения информационных систем в области теории, гармонии и полифонии музыки. Scientific progress 2 (3), 1044-1051
13. К.Б.Холиков. Образовательное учреждение высшего профессионального образования в музыкальной отрасли Узбекистана. Scientific progress 2 (6), 946-951
14. К.Б.Холиков. Задачи хора для вырождающегося нагруженного управления косвенного, противоположного и параллельно-двигающегося голоса. Scientific progress 2 (3), 690-696
15. К.Б.Холиков. Магнитные свойства тяготение к человеку многоголосного произведения музыке. Scientific progress 2 (3), 728-733

16. К.Б.Холиков. Дифференцированное обучение студентов на занятиях гармонии и анализа музыкальных произведений. *Scientific progress* 2 (3), 1038-1043
17. К.Б.Холиков. Звуковысотная организация и последовательность частей формы музыки. *Scientific progress* 2 (4), 557-562
18. К.Б.Холиков. Свободой выбора исполнительского состава в эпоху ренессанса. *Scientific progress* 2 (4), 440-445
19. К.Б.Холиков. Этапы формирования и перспективы развития инфраструктуры хорового коллектива. *Scientific progress* 2 (3), 1019-1024
20. К.Б.Холиков. Полуимпровизационные формы профессиональной музыки. *Scientific progress* 2 (4), 446-451
21. К.Б.Холиков. Область применения фугированных форм. Тройные и четверные фуги. Фугетта и Фугато. *Scientific progress* 2 (1), 1052-1059
22. К.Б.Холиков. Проблематика построения современных систем мониторинга объектов музыкантов в сфере фортепиано. *Scientific progress* 2 (3), 1013-1018
23. К.Б.Холиков. Содержание урока музыки в общеобразовательном школе. *Scientific progress* 2 (3), 1052-1059
24. К.Б.Холиков. Представление результатов измерений системы контроля параметров дыхания в вокальной пении. *Scientific progress* 2 (3), 1006-1012
25. К.Б.Холиков. Гармония к упражнению голоса их роль в регуляции мышечной деятельности при вокальной музыки. *Scientific progress* 2 (3), 705-709
26. К.Б.Холиков. Область применения двойные фуги. *Scientific progress* 2 (3), 686-689
27. К.Б.Холиков. Музикально театральные драмы опера, оперетта. *Science and Education* 3 (2), 1240-1246
28. К.Б.Холиков. Фактуры, музыкальной формы, приводящие к структурной, драматургической и семантической многовариантности произведения. *Scientific progress* 1 (4), 955-960
29. К.Б.Холиков. Подбор состава хора и изучение музыкального материала в школьном возрасте 10-13 лет. *Scientific progress* 2 (3), 999-1005
30. К.Б.Холиков. О принципе аддитивности для построения музыкальных произведения. *Science and Education* 4 (7), 384-389